

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TARIXGA OID TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Qudratova Charosxon Ne'matulla qizi

Guliston davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti Ye-
mail: charosql43@gmail.com. Tel.: +998 94 009 29 56

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari, interfaol metodlar hamda san'at namunalarini tarixiy kontekstda o'rganish orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida vizual tahlil, muzey pedagogikasi, loyiha va tadqiqot faoliyati, innovatsion ta'lim texnologiyalari kabi vositalardan foydalanishning o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, madaniy merosni anglashi va tarixiy voqelikni idrok etish qobiliyatiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, tarixiy tafakkur, madaniy meros, tahlil, muzey, estetika, ta'lim, tarbiya, ijodiy, interfaol, tarixiy kontekst.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fani nafaqat ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki o'quvchilarning madaniy merosga munosabatini tarbiyalash va tarixiy ongini shakllantirishda muhim o'rin tutadi [1; 2]. Tarixiy tafakkur vizual obrazlar, rassomlar asarlari, yodgorliklar va milliy an'analarni tahlil qilish jarayonida faol rivojlanadi. Shu bois tasviriy san'at darslariga tarixiy-madaniy komponentni integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi [3; 179-b.].

Tarixiy tafakkur - o'quvchining muayyan voqea, davr yoki madaniy jarayonni zamon, makon va ijtimoiy kontekstda anglay olish qobiliyatidir. Bu ko'nikma san'at asarlarini tahlil qilish jarayonida yanada faol shakllanadi, chunki tasviriy san'at har bir tarixi davrning estetik ideallari, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qarashlarini o'z ichiga olgan muhim manba hisoblanadi. Masalan, miniatyura san'ati Sharq madaniyatining rang-rang dunyoqarashini, Renessans asarlari Yevropa jamiyatidagi ilmiy va madaniy yuksalish bosqichlarini, xalq amaliy san'ati esa milliy an'analar, turmush tarzi va qadriyatlar tizimini yoritib beradi. San'at orqali tarixiy voqelikni obrazli tarzda idrok etish o'quvchining analitik fikrlashini, madaniy merosga munosabatini va umumiy dunyoqarash doirasini kengaytiradi [5; 41-b.].

Tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon vizual idrok, ma'naviy madaniyat va bilish faolligining integrativ rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarixiy tafakkurning shakllanishi o'quvchining san'at asarlarini muayyan davr, makon va ijtimoiy voqelik bilan bog'lay olishi, obrazlar orqali tarixiy jarayonlarni idrok etishi hamda madaniy merosga munosabatini mustahkamlashi bilan belgilanadi. Quyida keltirilgan metodlar ana shu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi asosiy pedagogik vositalar sifatida namoyon bo'ladi [6].

Birinci navbatda, vizual tahlil usuli o'quvchining ob'ektga bevosita nazar tashlashi, kompozitsiya, rang yechimi, personajlar libosi va muhit kabi elementlarni tahlil qilishi orqali tarixiy voqelikni obrazli idrok etishini ta'minlaydi. Bu usul san'at asarini faqat estetik jihatdan emas, balki ma'lum tarixiy kontekstda o'rganish imkonini beradi. Vizual tahlil o'quvchilarda solishtirish, tahlil qilish, savol berish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi kognitiv amaliyotlarni rivojlantiradi [4].

Ikkinchidan, interfaol dialog va tarixiy savol-javob usullari o'quvchilarni faol fikrlash jarayoniga jalb qiladi [2; 45-b.]. Maktabda tasviriy san'at darslarini muloqot va savol-javob shaklida tashkil etish, masalan, "Asar qaysi davrga mansub?", "Bu obraz orqali rassom nima demoqchi?", "Ayni davrda jamiyat qanday ko'rinishga ega bo'lgan?" kabi savollar o'quvchilarning tarixiy voqelikni interpretatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday dialog asosida o'quvchi asar ortidagi ma'naviy va madaniy qatlamni anglaydi, muayyan davrning ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarini tasavvur qila boshlaydi. Shu bilan birga, darsdagi faol muloqot yoshlarni davriy tafovutni his etish, o'xshash va farqli jihatlarni solishtirish, san'at asarini tarixiy manba sifatida o'qishga odatlantiradi. Bu esa o'quvchilarda tahlil qilish, savol qo'yish va tafakkurning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Uchinchi usul sifatida, loyiha va tadqiqot faoliyati ta'limni tadqiqotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi va o'quvchilarni mustaqil izlanish jarayoniga faol jalb etadi [4; 209-b.]. Bunday faoliyatda o'quvchilar "madaniy meros", "arxitektura", "rassom va davr", "tarixiy obrazlar interpretatsiyasi", "mahalliy yodgorliklar tahlili" kabi yo'nalishlarda mini-tadqiqotlar amalga oshiradilar [6]. Tadqiqot bajarish jarayonida ular axborotni izlash, saralash, manbalar bilan tanqidiy ishlash, vizual va matnli ma'lumotlarni solishtirish, faktlarni ilmiy asosda tahlil qilish kabi muhim kompetensiyalarni o'zlashtiradilar [4; 213-b.]. Shu bilan birga, o'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilish, ilmiy fikrni asoslash, guruhda ishlash va o'z g'oyalarini himoya qilish kabi amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [5; 6-b.].

Ushbu jarayon tarixiy tafakkurning ilmiy-mantiqiy asosda rivojlanishiga, voqelikka xolis va analitik yondashuvni shakllantirishga, shuningdek, tasviriy san'atni tarixiy manba sifatida idrok etish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi [3; 6]. San'at asarini tahlil qilishda o'quvchi kompozitsiya, rang, obraz, tarixi muhit, ijtimoiy munosabatlar kabi omillarni birgalikda ko'rib chiqadi va bu jarayon uning mantiqiy fikrlashini hamda dalilga asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, interfaol metodlar, muzey materiallari, loyiha va tadqiqot faoliyati orqali o'quvchi san'at, tarix va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglaydi, vizual ma'lumotlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishni o'rganadi.

Natijada o'quvchining ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishi kuchayadi, ijodiy-tadqiqot faolligi izchil ravishda rivojlanadi va u san'at asarlari orqali tarixiy voqelikni rekonstruksiya qilish, madaniy merosni ilmiy jihatdan baholash, shaxsiy fikr va xulosalarni asoslash kabi muhim kompetensiyalarni egallaydi [4; 6]. Bu esa uning intellektual salohiyatini, madaniy ongini va ijodiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, muzey pedagogikasi o'quvchining tarixiy ob'ekt bilan bevosita muloqotini ta'minlaydi [2]. Ekspонатlar, etnografik ashyolar, me'moriy yodgorliklar bilan tanishish ularda tarixiy voqelikning moddiy asosini anglash, vizual xotirani boyitish va emotsional taassurot orqali ta'limiy

ta'sirni kuchaytirish imkonini beradi [3]. Muzey faoliyati vizual-madaniy merosning bevosita manbai sifatida katta ahamiyat kasb etadi [2; 6].

Nihoyat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, audio-video materiallar, raqamli platformalar va virtual muzeylar tarixiy voqelikni virtual formatda qayta tiklash imkonini beradi [2; 3]. Bu texnologiyalar arxeologik ob'ektlar, tarixiy binolar va madaniy muhitlarni realistik tarzda namoyish qilib, o'quvchilarda yuqori darajadagi qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi [6]. Shu orqali tarixiy bilimlar zamonaviy media muhitida yanada ta'sirchan vositaga aylanadi.

Umuman olganda, ushbu metodlarning integrativ qo'llanilishi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning estetik, kognitiv va madaniy rivojlanishini ta'minlab, ularda tarixiy voqelikni chuqur anglash, madaniy merosga hurmat va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi [2; 4; 5].

Dars jarayonida tarixiy yondashuvning amaliy ahamiyati. Tasviriy san'at darslariga tarixiy materiallarni integratsiya qilish o'quvchilarning estetik va madaniy savodxonligini oshiradi, ularda milliy hamda jahon madaniyatiga nisbatan hurmat va qiziqishni shakllantiradi [1; 2]. Tarixiy voqealarni vizual qabul qilish xotira va tafakkurni rivojlantiradi, ijodiy vazifalarda tarixiy obrazlardan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlaydi [3; 5]. Shu bilan birga, bunday yondashuv o'quvchining shaxsiy dunyoqarashi, madaniy identifikatsiyasi va fuqarolik pozitsiyasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [6].

Xulosa. Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Dars jarayonida tarixiy kontekstdan foydalanish, milliy va jahon madaniy merosini tahlil qilish, interfaol va innovatsion metodlarni qo'llash o'quvchining umumiy fikrlash darajasini, tahlil qilish qobiliyatini, vizual idrokini va estetik sezgirligini chuqur rivojlantiradi. Shu orqali yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy qadriyatlarga ehtirom, madaniy identifikatsiya va tarixiy xotirani asrab-avaylash kabi muhim shaxsiy sifatlar barqaror shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son. <https://lex.uz/en/docs/5013007>
2. Abdirasilov A. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent, Fan va texnologiya. 2012. - 234 b.
3. Lomov B.F. Izobrazitelnoe iskusstvo kak faktor formirovaniya nauchnogo mirovozzreniya shkolnikov. - Moskva, Pedagogicheskie nauki №17. 2015. -179-184 s.URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/izobrazitelnoe-iskusstvo-kak-faktor-formirovaniya-nauchnogo-mirovozzreniya-shkolnikov>
4. Xayrov R.Z. Development of the Professional Training of Fine Arts Students through Watercolor Painting // American Journal of Education and Evaluation Studies. – 2025. – Vol. 2, No. 8. – P. 209-214. <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/2348>

5. Xayrov R.Z. The Role of Drawing and Painting in the Training of Future Teachers of Fine Arts // International Journal of Formal Education. – 2025. – Vol. 4, Issue 7. – P. 41–48. <https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/5420>
6. Jumaboev Nabi Pardaboevich. (2025). DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17306753>